

LIRIKADA RUHIYAT TASIVIRI

Karimboyeva Charos Ikrom qizi

Qorqalpoq davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

o'qituvchisi (mustaqil izlanuvchisi)

charoskarimboyeva93@gmail.com +998913835771

Annotatsiya. Ushbu maqolada she'riyat va ruhiyat munosabati, ruhiy tasvir va badiiyat masalasi, monolog va peyzajning ijodkor ruhiyatini ifodalashdagi o'рни tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Lirika, ruh, monolog, peyzaj, tasvir, obraz, ramz, tabiat, gul, bog'.*

ОПИСАНИЕ ДУШЕВНОГО СОСТОЯНИЯ В ЛИРИКЕ

Аннотация. В данной статье анализируется соотношение поэзии и духовности, проблема духовного образа и художественности, роль монолога и пейзажа в выражении творческого духа.

Ключевые слова: *Лирика, дух, монолог, пейзаж, образ, образ, символ, природа, цветок, сад.*

THE DEPICTION OF EMOTION IN LYRICS

Annotation. This article analyzes the relationship between poetry and spirituality, the issue of spiritual image and artistry, the role of monologue and landscape in expressing the creative spirit.

Keywords: *Lyric, spirit, monologue, landscape, image, image, symbol, nature, flower, garden.*

KIRISH

She'riyat - inson his-tuyg'ulari mevasidir! Ijodkor istaydimi yo'qmi har bir she'riy asar ruhiyatimizdagi qaysidir bir holatning aksi o'laroq maydonga keladi. Bu aksni ijodkor maromiga yetkazib tasvirlay olsa, o'sha lahzada his qilgan tuyg'ularini o'zidek ta'sirli va hislarga to'yingan holda she'rda qayta yashata bilsa va u hislar o'quvchi qalbida ham yashab keta olsa demak u haqiqiy iste'dod egasi, tug'ilgan misralar ham haqiqiy SHE'R hisoblanadi. "She'r – maxsus nutq shakli, u eng yaxshi tartibda joylashtirilgan eng yaxshi so'zlar yig'indisi. Unga qo'yiladigan barcha talablar nisbiy. Biroq she'r qaddini tutib turadigan ba'zi unsurlar borki, ularsiz she'r chiroyli so'zlar maqbarasi bo'lib qoladi, xolos. Bu avvalo she'rdagi ruh.." dir. Qofiyali

so'zlar, jimjimador o'xshatishlar, yaltiroq misralar she'r bo'lishi uchun avvalo uning ruhi bo'lishi kerak, agar o'sha ruh insonga nafas qadar yaqin, yurak urushidek tabiiy va tirik bo'lsa misralarga jon kirib kitobxonlar qalbida yashay boshlaydi. Afsuski bunday she'rlarni hamma ham tug'avermaydi, shu bois bo'lsa kerak, "Hamma shoir emas, shoir – hamma" (Sh.Subhon).

She'riy asarda ijodkor ruhiy dunyosini, ichki kechinmalarini, orzu va armonlarini anglatishning turfa yo'llari mavjud bo'lib, bu jarayon ijodkorning estetik dunyosi va uslubidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Quyida biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan vositalar har bir insonda turfa usulda namoyon bo'lishi mumkin. Va bu usullar she'riyat tug'ilibdiki yashab kelmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

She'riy asar monologig xarakterga ega bo'lib, ijodkorning qalb dunyosida sodir bo'layotgan g'alayonlar va holatlarni tashqi dunyoga chiqarish, kimgadir yoki bo'lmasam o'ziga-o'zi ta'kidlash maqsadida yuz beradi. Monolog (ya'ni qahramonning o'z-o'zi bilan ichki suhbat qilishi) muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. U orqali shoir qahramonning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini va ichki ziddiyatlarini chuqur ochib beradi. She'riyatda monologlarning ichki-iztirob va ruhiy kechinma monoglari, adolat va hayot haqida falsafiy monologlar, muhabbat va hijron monoglari, falsafiy va tasavvufiy monologlar kabi turlarini ko'rishimiz mumkin.

1.*Insonning ichki holati va ruhiy kechinmalari* ifodasini biz Navoiy asarlarida eng yuksak namunlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan Navoiyning quyidagi baytiga e'tibor qilaylik:

Ey, sening dardu g'aming jonima xos
Kim, alardin tilamon jonni xalos.
Meni hijron evazi aylar, aning
Ishqi har kimga raqam sursa qasos.
Mehmon bo'lmaq emish jon uyida
Yorkim, ko`nglum o`lubtur raqqos.
Meni ishq etti zabunu ojiz,
Bu emish dardu muhabbatqa xavos.

Bu g'azalda oshiqning ruhiy holati, uning yor va ishq oldida ojizligi, lekin shu ojizlikning ilohiy darajaga ko'tarilishi yuksak poetik ruhda ifodalangan. Navoiy bu yerda ishqni nafaqat dunyoviy, balki ilohiy yuksaklikka eltuvchi vosita sifatida tasvirlaydi. "Ey, sening dardu g'aming jonima xos"- Oshiq uchun dard va g'am begona emas, aksincha, uning joni bilan bog'liq. Bu yerda oshiq ruhiy jihatdan ikki qarama-qarshi tuyg'uni his qiladi: bir tomondan, dard uning jonini azoblasa, ikkinchi tomondan, bu azob uni ilohiy ishqqa yaqinlashtiradi. Ishq yo'lidagi g'am oshiqning yuragiga singib ketgan, u undan qutulishni istamaydi, chunki bu uning ishqdagi haqiqatini tasdiqlaydi. Oshiqning ruhiy kechinmalari shunday holatga yetganki, hijron uning butun vujudini qamrab olgan va uni tamoman iztirob ichida qoldirgan.

Klassik qorqalpoq adabiyotining yorqin siymosi Ajiniyoz asarlarida ham ruhiy kechinmani mahorat bilan ifodalaganini ko'rishimiz mumkin:

Dərtlerim kyn kynnen beter.

Zar eg'ýlaýыр kynim өter.

Залым pelek bizge ne eter.

Kashan maqset xal bolady.

Shoir dard va iztirob ichida ekanini ifoda etib, uning kun sayin ortib borishini ta'kidlaydi. Shoir kunlarini yig'lab o'tkazadi. Bu satr ichki og'riq va ruhiy qiyinchilikni tasvirlaydi. Hayotdagi adolatsizlik uni chuqur qayg'uga botirgan. Shoir intiq va savol ichida – qachon uning orzusi ushaladi, qachon azob tugaydi? Bu satrda faqat iztirob emas, balki umid ham mavjud. Bu dunyo faqat qayg'udan iborat emas, u orzularga yetishish umidini ham yashirgan.

2. *Adolat va hayot haqida falsafiy monologlar.* Dunyo yaralibdiki, insoniyat hamisha adolatga, haqiqat va tinch-farovon hayotga intilib kelmoqda. Chunki adolat va haqiqat bor joydagina inson huzur va halovatda yashashi mumkin. Birorta shoir yo'qki adolatni kuylamagan, uni tarannum etmagan bo'lsa. Xoh u jamiyatda bo'lsin, xoh insoniy munosabatlardagi ko'rinishi bo'lsin adolat hamisha mangu mavzular qatoridan joy olgan. Navoiy adolatni jamiyat va davlatning ustuni deb bilsa, Ajiniyoz o'z asarlarida adolatsizlikning salbiy oqibatlarini tushintirib uning fojiiyaviy yakunlaridan xabar beradi. Cho'lpon esa hayotni adolat uchun kurash maydoni sifatida tasvirlaydi. A.Oripovga ko'ra esa "adolat elning ko'z, qoshi bo'lur".

4. *Falsafiy va tasavvufiy monologlar* kabi turlarini ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiy va Ajiniyozning falsafiy ruhdagi she'rlari insoniy hayot, fano va boqiylik, haqiqat izlash, ruhiy kamolot kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

Quyoshdek shah adolat pesha qilsa,

Jahon mulkini bir damda yurutg'ay.

Agar zulm etsa aqshom zulmatidek,

Hamul dam tiyralik olamni tutg'ay.

Shoir hukmdorni quyoshga o'xshatadi. Quyosh dunyoga nurlarini sohib, uni yoritgani kabi, adolatli podshoh ham o'z saltanatini nurafshon qiladi. "Adolat pesha qilsa" – agar podshoh adolatni asosiy yo'nalish qilib olsa, butun dunyoga nuri yetadi. "Agar zulm etsa aqshom zulmatidek" Zulmat – nafs va jaholat. Agar hukmdor o'z nafsining quliga aylansa, u zulm qilishni boshlaydi va oxir-oqibat yo'q bo'lib ketadi.

Peyzaj. Insonning ruhiy holatini aks ettirish uchun peyzaj tasviridan foydalanish ham she'riyatimizda eng qadim zamonlardan beri yashab kelmoqda. Demak, tabiat manzaralarini tasvirlash shunchaki olam go'zalligining tasviri emas, balki u kayfiyatni ifodalash vositasi, yanada chuqurlashtirib aytadigan bo'lsak, muayyan bir dunyoqarash targ'ibi uchun badiiy zamin. Axir faqat tabiatni, umuman, dunyoni – Borliqning tasvirini aynan o'zidek qilib, qog'ozga ko'chirishdan maqsad nima? Bunday asarlar uning bir xil ko'rinishlaridan, aynan takrorlanishlaridan charchagan ko'zlarimizga, go'zallikka tashna ko'nglimizga, ruhimizga taskin beradimi?

Emas bog' ichra sarig' lola zanbaq bilki, har sori

Yong'i dog' o'rtab ul gul ishqidan sorg'ordi ruxsori.

Ushbu misralarda ishqning inson qalbiga tushirgan iztiroblari lirik tasvirlar orqali ifodalangan. Bu yerda shoir "sarig' lola" (sarg'aygan lola) va "zanbaq" (oq gulli nargis) tasvirlari orqali bog' manzarasini chizadi. Oddiy o'ylaganda, bog' ichida sarg'aygan lola va nargis gullari bo'lishi tabiiy, ammo shoir buni inkor etadi – ya'ni, bog' ichida ularni sarg'aygan holda ko'rmaymiz, demoqda. Shoir bog' ichidagi gullar ishq dardidan sarg'ayganiga urg'u bermoqda. Ya'ni, lola va nargisning rangi tabiiy emas, balki ularning o'tli ishq azobidan kuygan, yuzlari sarg'aygan. Lirik qahramon kechinmalari nafis tabiat tasvirlari orqali berilmoqda. Gullar tabiatda o'z tabiiy

rangi tufayli sariq yoki oq bo'lishi mumkin, lekin shoir bu tasvirni majoziy ma'noda talqin qiladi:

Suvda ermas mehr aksi, balki daryo jonig'a

Solg'on o'tlar xasta ko'nglum ohi otashnokidir.

Suvga quyosh aksi tushsa, u daryoni qizartirib ko'rsatadi (ayniqsa, kun chiqish va kun botish mahali). Oshiq-shoir bu manzaraviy hodisani esga solib turib, uni yana inkor etadi va bu hodisaning sababchisi quyosh emas, balki uning o'zi ekanligini anglaydi: «Ishq dastida xasta bo'lgan jonimning «oh»laridan daryo joniga o't tushgan, shuning uchun u yolqinlanib ko'rinmoqda», – deydi u.

“Navoiy g'azallarida tabiat ko'ngil ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi. Agar oshiq ko'ngli g'amu hasrat qo'ynida bo'lsa, subhidam ham go'zal bog'u bo'stonlar, gulzor ham uning qayg'usiga monand bo'lib ko'rinaveradi, yuragi quvonchga to'lgan farahli damlarda esa u shom qorong'usidan ham, xazonzor bog'lar bag'ridan ham o'z quvonchiga sherik topa oladi. Manzaralar tasviri, uning ifodasi shoirning ijodiy niyatiga muvofiq evriladi”.

G'am tuni ohim sharoridin tutashti ko'kka o't

Kim, aning otin qo'yuptur gunbadi davvor subh. Baytning zohiriy mazmuni: “G'am tunida men chekkan “oh” olovidan ko'kka o't chirmashdi. Uning nomini esa aylanuvchi gumbazning (falakning) tongi, deb atabdilar, aslida esa bu tong mening “oh”larim mahsuli. Peyzaj va ruhiyat tasviri o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin:

Parallelizm: Tabiat tasviri ko'pincha lirik qahramonning hissiyotlari bilan uyg'unlashadi. Masalan, quvonchli holatda quyoshli, yorqin manzara tasvirlansa, qayg'uli kayfiyatda kuz yoki tumanli havo tasvirlanishi mumkin.

Kontrast: Ayrim hollarda muallif ruhiy holat va peyzajni qarama-qarshi qo'yib, hissiyotlarni yanada ta'sirchan ifodalaydi. Masalan, baxtsiz qahramon fonida bahorning gullab-yashnashi hayotning davom etishini bildirishi mumkin.

Ramziylik: Tabiat unsurlari (yomg'ir, shamol, quyosh, dengiz va h.k.) ramziy ma'noda insonning ichki dunyosini aks ettirishi mumkin. Masalan, shamol beqarorlikni, yomg'ir esa ichki poklanishni ifodalashi mumkin. O'zbek adabiyotida ramziylikning eng yuksak namunalarini Cho'lpon ijodida kuzatishimiz mumkin.

“Choʻlpon lirikasida ramziylikning tugʻilishi Tabiat va Ruhiyat dialektikasiga bogʻliq. Lirik “men”ning kayfiyati va tabiat hodisalari orasidagi munosabatga bogʻliq. Choʻlpon sheʼriyatida Ruh – haqiqiy iztirob hosilasi. Bu iztirobning izlarini “Binafsha” sheʼri misolida kuzatish mumkin. Binafsha gul. Biroq bu gul “erkin kulmasdan ochilgan, hidlari sochilmay, yerlarga egilgan, choʻzilgan” gul. Uni xohlasalar uzarlar, hidlaylar, yancharlar. Nega? Shoir ruhiy kechinmalarini binafshaga “koʻchirmoq”da, shu orqali aytoilmagan, aytishni istagan iztiroblarini bayon qilmoqda.

Qorqalpoq adabiyotining yorqin vakillaridan biri B.Genjemuratov sheʼriyatida bahor – yoshlik va muhabbat ramzi, kuz esa xazon boʻlgan umidlar va gʻamning ifodasi sifatida tasvirlanadi. Tabiatning gʻazabnok manzarasi shoirning ichki iztiroblarini kuchaytiradi.

Hayranman... Tastóbem–qızıl bult!

Jawǵan qar aq emes–kúl ireń.

Jiyekte qara bult–qara qulıp...

Avgustta muz qatqan–qıs, seń..

S.Sayyid sheʼriyatida ham tabiat va ruhiy kechinmalar oʻzaro bogʻlangan holda tasvirlanadi.

Mungʻayib qoldilar umid bogʻlari,

Mangu zirqiraydi bagʻir dogʻlari,

Bogʻlarning dudlari hamda zogʻlari

Mening figʻonimdir ham mening kulim,

Alamli dunyoda alamli gulim.

Bu misralarda lirik qahramonning iztiroblari, dard va umidsizlik kayfiyati chuqur aks etgan. Sheʼrda peyzaj insonning ruhiy holati tasvirlangan. *"Mungʻayib qoldilar umid bogʻlari"* – bu misra insonning orzulari va umidlari soʻnayotganini bildiradi. "Bogʻ" umid va kelajakka ishora qilsa, "mungʻayib qoldi" iborasi ularning soʻlgani, zavol topayotganini koʻrsatadi.

"Mangu zirqiraydi bagʻir dogʻlari" – bu satrda ruhiy iztirobning abadiyligi tasvirlangan. "Zirqiraydi" soʻzi doimiy azobni, yurakdagi dogʻ esa oʻtkinchi emas, balki doimiy iz qoldirgan jarohatni ifodalaydi.

"Bog'larning dudlari hamda zog'lari", ya'ni bog'dan chiqqan tutun va qora qushlar – tashlandiq, zavolga yuz tutgan hayot manzarasini chizadi. Qora qushlar (zog'lar) odatda o'lim, g'am, xazon bo'lgan orzular ramzi sifatida ishlatiladi. *"Mening fig'onimdir ham mening kulim"* – bu misrada qahramon o'z izzatlarini bog'ning yonayotgan tutuni va vayronaga aylangan kuliga qiyoslaydi. Bu esa orzularning to'liq barbod bo'lishini anglatadi. *"Alamli dunyoda alamli gulim"* – bu satrda dunyo va undagi yagona gul (ya'ni qadrlı insoni) ham dardli ekanligi ta'kidlanmoqda. Bu esa lirik qahramonning hayotga bo'lgan qarashida chuqur izzat hukmronligini ko'rsatadi.

XULOSA

Demak, lirikada ruhiyat tasvirini berishda peyzaj (tabiat manzarasi) muhim rol o'ynaydi. Adabiyotda peyzaj insonning ichki kechinmalarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi va ko'pincha qahramonning ruhiy holatini aks ettirish uchun vosita sifatida qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Алиев Б.Ҳозирги ўзбек шеъриятида психологизм проблемаси: Филол.фан. номз...дисс.-Т.:1994
- 2.Тўлаков И.Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини: Филол.фан.доктори.дисс.-Т.:1994.
- 3.Норбоев Б.Ҳаётни поетик талқин этиш таомиллари ва маҳорат муммолари: Филол.фан.доктори.дисс.автореферати.-Т.:1996.
- 4.Жумабоева Ж.ХХ аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир маҳорати: Филол.фан.доктори.дисс.-Т.:1999.
- 5.Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.-Б.199
- 5.Карим Б. Руҳият алифбоси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015;